

“TASDIQLAYMAN”
Kambag‘allikni qisqartirish va
bandlik bosh boshqarma
boshlig‘i
Z.Ikramov
“ 6 ” 01 2024-yil

Namangan viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasida ZOOM platformasi orqali o‘tkazilgan yig‘ilish
BAYONI № 1

2024-yil “ 6 ” iyun

Namangan shahar

Raislik qiluvchi: Z.Ikramov - Namangan viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i

Qatnashdilar: Bosh boshqarma boshlig‘i o‘rinbosarlari, bo‘lim boshliqlari, mutaxassislari, shahar va tumanlar bo‘limi boshliqlari, (ro‘yxat bo‘yicha).

KUN TARTIBI:

1. Vazirlik tizimida 2023-yil yakunlari va 2024-yilning yanvar oyida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar bo‘yicha 2023-yil 29-dekabr kuni 07-1-son yig‘ilish bayoni ijrosi to‘g‘risida.

(Z.Ikramov, A.Aloxodjaev, Sh.Imamov, A.Qosimov, Sh.Abdullaev, Z.Ikramov)

Yig‘ilishni bosh boshqarma boshlig‘i Z.Ikramov ochib u so‘z so‘zida Vazirlik tizimida 2023-yil yakunlari va 2024-yilning yanvar oyida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar bo‘yicha 2023-yil 29-dekabr kuni 07-1-son yig‘ilish bayoni o‘qib eshitirdi, Joriy yilda vazirlik tomonidan bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilganligi. Jumladan:

Hududiy hokimliklar bilan birgalikda Respublika bo‘yicha jami 5,8 mln aholi daromadli mehnat bilan ta‘minlanganligi.

217 ming fuqarolar, shundan 183 ming xotin-qizlar, 90 ming yoshlar kasb-hunarga, tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qishga jalb etildi, yillik reja 136 % ga bajarilganligi.

415 ming ishsiz fuqarolarni hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni bo‘sh va zaxiralangan ish o‘rinlariga ishga joylashtirilganligi.

58 ming ishsizlarga mehnat qurollari xarid qilish, tadbirkorlik, kasanachilik, tomorqachilik bo‘yicha mini-loyihalarni amalga oshirish hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 275 mlrd.so‘m subsidiya ajratilganligi.

Hokim yordamchilari tavsiyasi bilan 9,2 trln.so‘m imtiyozli kredit ajratish orqali 442 ming aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etildi. Dehqonchilik qilish uchun 240 ming aholiga 90 ming gektar yer maydoni ijara asosida ajratilganligi.

Mehnat migratsiyasi geografiyasi kengaytirildi, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Ruminiya, Bolgariya, Vengriya kabi rivojlangan davlatlarga tashkiliy yuborish yo‘lga qo‘yildi. 109 ta xorijiy ish beruvchilar bilan shartnomalar tuzilib, 37 ming xorijda ishlash istagi bo‘lgan shaxslar xorijiy davlatlarda ishga joylashtirilganligi.

172 ta yangi kasb standartlari ishlab chiqilib, 2 193 taga yetkazildi. Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblarining klassifikatori yangi tahriri va Mashg‘ulotlar milliy klassifikatsiyasi ishlab chiqildi, 200 dan ortiq yangi kasblar bilan to‘ldirilganligi.

9442 nafar hokim yordamchilari Xitoy kambag‘allikni qisqartirish markazining kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha onlayn kurslarida o‘qitildi, shuningdek, 44 nafarini Xitoy, Turkiya, Rossiya davlatlarida malakasi oshirilganligi.

Aholi bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha Xalqaro moliya institutlarining 57,5 mln. AQSh dollari mablag‘lari o‘zlashtirilganligi.

Davlatimiz rahbari tomonidan belgilangan 859 ta topshiriqlar ijrosi ta‘minlanganligi.

Yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan 359849 ta murojaatlarning 179981 tasi ijobiy hal etilib, 165461 tasiga tushuntirishlar berilganligini o‘qib eshitirdi.

Yuqorida xolatlari yuzasidan shaxar va tuman bo‘limlarini fikr muloxazalari va takliflari tinglandi.

Bosh boshqarma boshlig‘i Z.Ikramov o‘z so‘zini yakunida bosh boshqarma va uni quyi tizimlarida, o‘tgan 2023 yilda oldimizga qo‘yilgan reja ko‘rsatkichlar ortig‘i bilan bajarilgan bo‘lsada, 2024 yilda fuqarolarni Ishga joylashtirish, kasb-xunarga o‘qitish, kasanachilik, xokim yordamchilari tomonidan kredit mablag‘lar ajratish, subsidiyalar berish, ishsizlik nafakasi tayinlash, xaq to‘lanadigan jamoat ishlari tayinlashda qonun, nizom talablariga roiya qilish kerakligi, fuqarolardan kelgan murojatlarni o‘z vaqtida bajarishini nazoratga olish, barcha bo‘limlar 2024 yil uchun ish rejalarini tayorlash hamda ijro intizomi susayib ketganligi to‘g‘risida ma’sullarni qat’iy ogoxlantirdi va xodimlarni ishga kelishi va ishdan qaytishi, tushlikga vaqtida chiqish va belgilangan vaqtda qaytish va boshqa ichki intizom tartiblariga bo‘ysunishlarni alohida ta’kidlab, bir qator vazifalarni belgilab berdi.

Kun tartibi bo‘yicha masalani ko‘rib chiqib, rahbar va xodimlarining shaxsiy javobgarligini hamda mas’uliyatini oshirish maqsadida yig‘ilish

Qaror qiladi:

1. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (T.Tuyaxo‘jaev), shahar va tuman bo‘limi boshliqlari:

- o‘n kun muddatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil

21-dekabrda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda Mahallalar uyushmasi faoliyatiga oid tegishli Farmon va qarorlariga asosan bosh boshqarma tizimidagi 61 ta shtatlarni qisqartirish hamda shtat birliklari lavozimlarida ishlayotgan xodimlarga belgilangan tartibda ogohlantirish xatlari berilishini tashkil etsin;

2. Bosh boshqarma boshlig'ini birinchi o'rinbosari (A.Aloxodjaev), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi viloyat xuddudiy boshqarmasi (Sh.Imamov):

-Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 26-dekabrda 221-ICH-sonli buyrug'iga asosan 2024-yil 3-17-yanvar kunlari mehnat bozori, aholi bandligi hamda migratsiya masalalarida sotsiologik o'rganish o'tkazish uchun, har bir hududga xizmat safariga yuborilayotgan xodimlar uy xo'jaliklarida bandlik holati bo'yicha so'rovnoma o'tkazilishini ta'minlasin;

-xizmat safariga yuborilgan har bir xodim so'rovnoma yakunlari haqida shaxsan hisobot berishi va shu shahar tumanlarga 2024-yilda ishsizlarni bandligini ta'minlashga shaxsan mas'ul etib belgilansin.

-shahar tumanlari sotsiologik o'rganish o'tkazish uchun hududga xizmat safariga yuborilgan xodimlar uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilishi hamda bir nafar mas'ul xodim birlashtirilishini ta'minlasin.

3. Bosh boshqarma boshlig'ini birinchi o'rinbosari (A.Aloxodjaev), bandlik dasturlarini shakllantirish bo'lim (O.Xasanov):

-2024-yil 5-yanvarga qadar bosh boshqarmaning 2024-yil 1-yarim yillikka mo'ljallangan Ish rejasini ishlab chiqib, Vazirlarga kiritilishini ta'minlasin. Ish rejada aniq mexanizm va samaraga erishish ko'rsatkichlari hamda 2024-yil uchun O'zbekiston-2030 strategiyasi hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni inobatga olsin;

4. Bosh boshqarma boshlig'ini birinchi o'rinbosari (A.Aloxodjaev) bandlik dasturlarini shakllantirish bo'lim (O.Xasanov) Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (T.Tuyaxo'jaev), Tashkiliy-nazorat bo'limi (M.Egamberdiev), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi xuddudiy boshqarmasi (Sh.Imamov), viloyat Tashqi mehnat migratsiyasi (A.Oppoqov) hamda shahar va tumanlar bo'limi boshliqlari:

-2024-yil 18-yanvarga qadar bosh boshqarmaning hududiy va tuman (shahar) bo'limlari rahbarlari uchun bosh boshqarmaning asosiy vazifa va funksiyalaridan kelib chiqib, 3 kunlik o'quv seminarini tashkil qilish choralarini ko'rsin;

-har bir bo'lim boshliqlari mazkur o'quv seminarida foydalanish uchun o'zlarining yo'nalishlari bo'yicha mahsus o'quv qo'llanma va prezintatsiya tayyorlash choralarini ko'rsin.

5. Bosh boshqarma boshlig'ini birinchi o'rinbosari (A.Aloxodjaev), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi xuddudiy boshqarmasi (Sh.Imamov) shahar tuman bo'limi boshliqlari bilan birgalikda 2024-yil 9-yanvarga qadar:

-hokim yordamchilari tomonidan ishsizlikni aniqlash bo'yicha o'tkazilayotgan xatlov jarayonini to'liq nazoratga olib, xatlov natijalarining ob'ektivligi va haqqoniyligi uchun shaxsan javobgarligi belgilab qo'yilsin.

-hokim yordamchilari vakant bo'lgan mahallalarda xatlovni tuman, shahar bo'limlari tomonidan o'tkazilishini tashkil etib, xatlovni barcha mahallalarda to'liq yakunlash choralari ko'rsin.

6.Kambag'allikni qisqartirish, hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Madaminov), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi xududiy boshqarmasi (Sh.Imamov):

-2024-yil 1-yanvardan boshlab ishsizlarni doimiy ishga joylashtirish, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj toifalarining bandligini ta'minlash, tashkillashtirilgan xorijiy mehnat migratsiyasiga ishsiz fuqarolarni yuborishga ko'maklashish, tashqi mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarga reintegratsiya yordamini ko'rsatish, norasmiy bandlikni rasmiylashtirish hokim yordamchilarining KPI ko'rsatkichlarini baholashda asosiy mezonlar etib belgilansin;

-kambag'al oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha ishlab chiqilgan individual dasturlarning manzilliligini va undagi chora-tadbirlarni belgilangan muddatlarda amalga oshirish choralari ko'rib borsin;

-2.0 ming nafar o'zini o'zi band qilgan fuqarolarni biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali kichik biznesga o'tkazish choralari ko'rsin;

7.2024-yil 10-yanvarga qadar Bosh boshqarma boshlig'ini birinchi o'rinbosari (A.Aloxodjaev), Chortoq tuman bo'limi boshlig'i (M.Negmatillaev) bilan birgalikda Chortoq tumanida tashkil etilgan issiqxonalar tajribasini o'rganish va ommalashtirish maqsadida amaliy seminarlar tashkil etib, shaxar va tumanlardan ushbu tajribani o'rganish istagini bildirgan fuqarolarni jalb qilsin.

8.Viloyat Tashqi mehnat migratsiyasi (A.Oppoqov) bilan birgalikda "Xorijda ishga joylashtirish bo'yicha litsenziya olish uchun ariza berish" elektron xizmatini bir oy muddatda yaratish chorasini ko'rsin.

9.Kasbga o'qitish va malaka tizimini rivojlantirish bo'limi (A.Soloxiddinov), "Ishga marhamat" monomarkazi (U.Mamajonva), shahar va tuman bo'limi boshliqlari:

-2024-yil davomida monomarkaz, kasb-hunar o'qitish markazlarda kasbga o'rgatish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab, kasbga o'qitishni yagona dastur asosida o'qitilishini tashkil etish hamda sohani raqamlashtirish choralari ko'rsin;

-monomarkaz, kasb-hunar o'qitish markazlarida xorijiy tillar, jumladan ingliz va koreys, arab tillari kurslarini tashkil etish bo'yicha barcha zaruriy choralarni belgilasin;

-monomarkazda mehnat migratsiyasi bo'yicha "RECEPTION" bo'limlarini tashkil etish bo'yicha taklif kiritsin;

-2024-yil 10-yanvarga qadar monomarkaz, kasb-hunar maktablari va markazlarning foydalanmaydigan xonalari va binolarini aniqlab, ushbu xonalar va binolardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar kiritsin, hamda o'qitiladigan zamonaviy kasblar ro'yxatini shakllantirsin;

-2024-yil 12-yanvarga qadar elektromobillarga xizmat ko'rsatuvchi kasblarni o'rganish istagini bildirgan shaxslar ro'yxatini shakllantirsin;

10.Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (T.Tuyaxo'jaev) bilan birgalikda namunali faoliyat ko'rsatgan monomarkaz, kasb-hunar o'qitish

markazlarini rag'batlantirish bo'yicha taklif kiritsin.

11. Viloyat Tashqi mehnat migratsiyasi (A.Oppoqov) bilan birgalikda xorijiy ish beruvchilar bilan imzolangan shartnomalarga asosan monomarkaz, kasb-hunar o'qitish markazlarida kasblarga o'qitilishini tashkil etsin. Xususan, kemasozlik yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash masalasini o'rganib tegishli takliflar kiritilsin.

12. Bosh boshqarma boshlig'ini birinchi o'rinbosari (A.Aloxodjaev), Davlat mehnat inspeksiyasi boshlig'i (Sh.Abdullaev) 2024-yil 10-yanvarga qadar davlat mehnat inspeksiyasi faoliyatini tubdan yaxshilash, qonunchilik normalarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan vazirlikga axborot taqdimot qilsin;

13. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (T.Tuyaxo'jaev) bilan birgalikda Davlat mehnat inspeksiyasida faoliyat ko'rsatuvchi mas'ul xodimlarni lavozimga loyqlik masalasini ko'rib chiqib, hududiy va tuman shahar inspeksiyalarida faoliyat olib borayotgan hodimlarni amaldagi qonunchilikka asosan attestatsiyadan o'tkazish choralari ko'rish bo'yicha takliflar kiritsin;

14. Kambag'allikni qisqartirish, hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Madaminov) Davlat rahbarining joriy yil Qashqadaryo viloyatiga tashrifi yakuni bo'yicha 35-sonli bayoni ijrosi bo'yicha "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholini tadbirkorlikka jalb qilish, kredit resurslarini ularni kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitilgandan so'ng ajratish tartibi"ni joriy etsin;

15. Yuridik ta'minlash bo'limi (M.Xomidov) "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" orqali yordam berilgan shaxslarga bilan ijtimoiy shartnoma tuzish amaliyotini joriy qilish masalasi yuzasidan takliflar ishlab chiqib, Vazirlikga kiritsin.

16. Tashkiliy-nazorat bo'limi (M.Egamberdiev) ijro intizomi bo'yicha bosh boshqarma oldida turgan muhim vazifalar ijrosi bo'yicha kunlik axborot kiritib borsin.

17. Tashkiliy-nazorat bo'limi (M.Egamberdiev) bosh boshqarmaga kelib tushgan Mahalla tizimi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatiga oid murojaatlar, xat va xujjatlardagi topshiriqlarni (Qonun, Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar hamda boshqa xujjatlar) xatlovdan o'tkazib, viloyat Oila va xotin-qizlar ko'mitasi va viloyat Mahallalari uyushmasiga dalolatnoma asosida o'tkazish chorasini ko'rsin.

18. Axborot xizmati (U.Ko'shaqova) o'n kun muddatda tizimda axborot siyosatini yuritish samaradorligi oshirish, amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha taklif kiritsin.

19. Bosh boshqarma boshlig'ini birinchi o'rinbosari (A.Aloxodjaev) 2024-yil 10-yanvarga qadar tizimda faoliyat olib borayotgan yoshlarning tizim faoliyatini rivojlantirish borasidagi bildirilgan takliflarini amalda qo'llash bo'yicha chora tadbirlar belgilasin.

-axborot xizmati (U.Ko'shaqova) bilan birgalikda tizimda faoliyat olib

borayotgan yoshlar tashabbuslari bilan amalga oshirilayotgan loyihalarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borilishi ta'minlasin.

20. Jamoat ishlari jamg'armasi (M.Otamirzav) tizimda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish va ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida belgilangan tartibda xodimlarni sport anjomlari va inventarlari bilan ta'minlash bo'yicha vazirlikga taklif tayorlasin,

21. Tashkiliy-nazorat bo'limi (M.Egamberdiev):

-2024-yil 10-yanvarga qadar shahar tumanlar bo'limi boshliqlari bilan birgalikda murojaatlar soni oshishiga sabab bo'lgan sohalarni hududlar kesimida tahlil qilib, murojaatlarni kamaytirish yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalar to'g'risida taklif ishlab chiqsin;

-ushbu yig'ilish bayoni bosh boshqarma quyi tizimlari yetkazish va ijrosini bajarilini doimiy nazoratga olsin.

22. Bosh boshqarma tizimida viloyat tashkilotlarga va vazirlikga yuboriladigan xat-hujjatlar bosh boshqarma boshlig'ini imzosi bilan yuborilishi belgilab qo'yilsin.

23. Mazkur bayon ijrosini nazorat qilishni Bosh boqarma boshlig'ini birinchi o'rinbosari (A.Aloxodjaev) zimmasiga yuklatilsin.

Bayonlashtiruvchi



A.Qosimov.